



QADIMGI RIM TILSHUNOSLIGI

ADCHTI Ingliz filologiyasi

o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Xitoy tili yo'nalishi 101-guruh talabasi

Sadridinova Zulfiyaxon Murodjon qizi

Ilmiy maslahatchi: **Zaynobidinova.I**

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Rim tilshunosligining shakllanish jarayoni, asosiy grammatik maktablari, Varro, Priscian va Quintilian kabi olimlarning ilmiy merosi hamda Rim grammatikasi zamonaviy tilshunoslikka ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot lotin tili fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi va stilistikasining ilmiy asoslari hamda ularning Yevropa filologiyasidagi o'rnini bilan bog'liq masalalarni yoritadi.

Kalit so'zlar: Rim tilshunosligi, lotin tili, Varro, Priscian, Quintilian, grammatik maktab, fonetika, morfologiya, sintaksis, stilistika, ritorika, filologiya, Yevropa grammatikasi.

Annotation: This thesis explores the development of Roman linguistics, its major grammatical schools, and the scholarly contributions of Varro, Priscian, and Quintilian. It analyzes the scientific foundations of Latin phonetics, morphology, syntax, and stylistics, as well as their influence on the formation of European philological traditions and modern linguistic theories.

Key words: Roman linguistics, Latin language, Varro, Priscian, Quintilian, grammatical school, phonetics, morphology, syntax, stylistics, rhetoric, philology, European grammar.



Аннотация: В данной тезисной работе рассматривается формирование римского языкознания, его основные грамматические школы, а также научное наследие Варрона, Присциана и Квинтилиана. Анализируются научные основы фонетики, морфологии, синтаксиса и стилистики латинского языка и их влияние на европейскую филологическую традицию и современное языкознание.

Ключевые: Римское языкознание, латинский язык, Варрон, Присциан, Квинтилиан, грамматическая школа, фонетика, морфология, синтаксис, стилистика, риторика, филология, европейская грамматика.

Rim tilshunosligi (lingua Latina asosidagi ilmiy tahlil maktabi) — qadimgi Rim davrida shakllangan, lotin tilining fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi va stilistikasini chuqur ilmiy asosda izohlagan filologik yoʻnalishdir. Ushbu davr yevropacha filologiyaning ilk ilmiy bosqichlaridan biri sifatida qaraladi. Rim grammatik maktablari yunon filologiyasidan ilhomlangan boʻlsa-da, ular mustaqil ilmiy nazariyalarni ham yaratgan.

Qadimgi Rim tilshunosligi, asosan Qadimgi Yunon tilshunosligi, grammatikani falsafadan mustaqil soha sifatida ajratib bergan Iskandariya tilshunoslik maktabi taʼsirida shakllangan va rivojlangan.

“Aleksandriyaliklarning grammatik taʼlimoti rimliklarga koʻchirildi. Rimliklar Yunonlar erishgan grammatik yutuqlardan oziqlandilar va bu taʼlimotni davom ettirdilar. Rim olimlari lotin tilida artikl boʻlmaganidan Yunonlar ishlab chiqqan soʻz turkumlari sistemasidagi artikl oʻrniga undovlarni kiritdilar. Deyarli barcha Yunon lingivistik terminlari lotin tiliga tarjima qilindi va bu terminlar lotin tili negizida boshqa tilshunosliklarga tarqaldi.” Yunon grammatik sistemasini Rimga eramizdan oldin 167-yilda Pergam tilshunoslari maktabining rahbari anomalist Krates elchixona bilan olib borgan. Iskandariya maktabi yaratgan yunon tili grammatik sistemasini



rimliklar lotin tiliga tatbiq qilganlar. Ayni vaqtda rimliklarga yunon anomalistlari va analogistlari o'rtasida bo'lgan munozara ham yot bo'lmagan. Ma'lumotlarga qaraganda, qadimgi Rimning yirik davlat arbobi va lashkarboshisi, yozuvchisi va notiqalaridan biri Yuliy Sezar (eramizgacha – 100-44) Galliyaga yurish vaqtida (eramizgacha 54 yilda) “Analogiya haqida” nomli grammatik asar yozgan. Ammo u bizgacha yetib kelmagan. Yunon analogistlari va anomalistlari o'rtasida bo'lgan munozara va uning mazmuni rimlik mashhur tilshunos Mark Terensiy Varron (eramizgacha – 116-27) yaratgan “Lotin tili grammatikasi haqida” nomli asarida o'z aksini topgan. Asar 25 ta kitobdan iborat bo'lib, bizgacha ularning 6 tasi yetib kelgan.

Rim tilshunosligining eng asosiy jihatlaridan biri lotin tilini xalqaro diplomatiya, huquq, falsafa va ilohiyot tili sifatidagi maqomini ilmiy asoslash bo'lgan. Shu bois grammatik izlanishlar tilning amaliy qo'llanilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Quintilian, Varro, Priscian kabi olimlar Rim grammatik maktablarining eng yirik vakillari hisoblanadi.

Rim grammatikasi va uning tuzilishi: Rim grammatikchilari lotin tilini tahlil qilishda to'rt asosiy bo'limni ishlab chiqqan:

Fonetika – lotin tovushlarini klassifikatsiya qilish, ularning talaffuz me'yorlarini belgilash.

Morfologiya – ot, sifat, fe'l va boshqa so'z turkumlarining shakl yasalishi; fleksiyalarning qat'iy tizimini yaratish.

Sintaksis – so'z birikmalari va gaplarning qurilishi, kelishiklar boshqaruvi, fe'l zamonlari va mayllarining grammatik vazifalari.

Stilistika va ritorika – nutq madaniyati, oratorlik san'ati, matn kompozitsiyasi.



Rim grammatikasi tizimlilik va qat'iy me'yoriy yondashuvi bilan ajralib turadi. Bu jihatlar keyinchalik yunon-lotin asosidagi yevropa grammatikalariga katta ta'sir ko'rsatgan.

Rim tilshunosligida asosiy olimlar faoliyati:

1. Mark Terenziy Varro (M.Terentius Varro)

Varro lotin tilining ilk ilmiy tavsifchilaridan bo'lib, "De Lingua Latina" asari orqali tilning kelib chiqishi, so'z yasalishi va grammatik kategoriyalarni izohlab bergan. U induktiv tahlil tamoyiliga asos solgan.

2. Priscian (Priscianus Caesariensis)

Priscianning "Institutiones grammaticae" asari Yevropa o'rta asr grammatikasining asosiy manbasi hisoblanadi. U yunon grammatikasini lotin tiliga moslashtirib, universal grammatik tushunchalarni shakllantirgan.

3. Kvintilian (Marcus Fabius Quintilianus)

"Institutio oratoria" asarida grammatikani ritorika bilan birlashtirib, tilning amaliy ko'rinishlariga urg'u bergan. Uning qarashlari zamonaviy nutq madaniyati va stilistika fanlarida muhim o'rin tutadi.

Rim tilshunosligi merosi va zamonaviy ahamiyati

Rim tilshunosligi hozirgi tilshunoslikka bir necha muhim yo'nalishda ta'sir ko'rsatgan:

- normativ grammatik tuzilma;
- fleksion tipidagi tillarni tasniflash tamoyillari;
- sintaksisning kuzatuvga asoslangan ilmiy tahlili;
- ritorika va stilistika asoslari;





— pedagogik grammatika an'analari.

Lotin tilining tarixiy grammatikasi bugungi kunda roman tillari (italyan, fransuz, ispan va boshqalar) tarixini o'rganishning poydevori hisoblanadi. Shuningdek, huquqiy terminologiya, tibbiyot, biologiya, diplomatiya va akademik tilning ko'plab qatlamlari lotin tilshunosligiga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, rim tilshunosligining o'rganilishi badiiy nutqning ichki tuzilishini chuqurroq tushunishga yordam beradi va she'riy ijodning estetik qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Jo'rayev, B. Umumiy tilshunoslik. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.

Xolmonov, N. & To'xliyev, B. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi, 2005.

Rasulov, R. Qadimgi tillar grammatikasi (Lotin tili asoslari). Toshkent, 2010.

Nurmonov A. Tanlangan asarlar, Toshkent, 2012.

